Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). “Авесто”. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. Т., “Шарқ”, 2001.

(2). “Авесто”. “Видевдот” китоби. М.Исҳоқов таржимаси. Т., ТДШИ нашриёти, 2007.

(3). “Авесто”. Яшт китоби. М.Исҳоқов таржимаси. Т., “Шарқ”, 2001.

(4). Абдуллаева М.Н. “Авесто” в аспекте синергизма. «Авесто қадриятлари. Замонавийлик, дин ва фалсафа» мавзусидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, Т., “Навруз”, 2013.

(5). Махмудова Г., Арифханова С. Зардўштийлик фалсафаси. Т., “Noshir”, 2014.

(6). Рахманов Б. Инсоннинг руҳий-маънавий ўз-ўзини ташкиллаштиришининг фалсафий илдизлари (монография). Самарқанд, Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2014.

(7). Сафарова Н., Бекпулатов Г. The synergetic analysis of the ecological points in the Avesta. «Авесто қадриятлари: Замонавийлик, дин ва фалсафа» мавзусидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, Т., “Навруз”, 2013.

(8). Тураев Б. Фалсафа тарихининг қисқача баёни. Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2010, 2-сон.

(9). Тураев Б. Борлиқ: моҳияти, шакллари, хусусияти. Т., “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2011.

(10). Уразова Раъно. Мустақил Ўзбекистонда зардуштийлик илоҳиёт тизими генезиси ўрганилиши масалаларига доир. Ўтмишга назар. Взгляд в прошлое. Look to the past. № SI, 2020.

(11). Эргашева М. Духовно-психологическая самоорганизация человека в идеях “Авесты”. Вопросы гуманитарных наук. Россия, 2013, № 3, с. 63–68.

(12). Эргашева М. Синергетический подход к некоторым идеям в “Авесте”. Credo-new. С-Петербург, 2015.

(13). Ergasheva M. The synergestic nature of the struggle between good and evil in Zoroastrianism. International scientific journal «Theoretical & Applied Science». France. Philadelphia, USA, 2015, № 09.

(14). “Авесто”нинг синергетик таҳлили. Монография, Самарқанд, СамДУ, 2016.

(15). Ergasheva M. Djavatova O. “Avesto” a philosophical source calling for goodness. JMEA Journal of Modern Educational Achievements 2023, Volume 10.

Qosnazarova Palzada Quanishbaevna (Nukus davlat Pedagogika instituti doktoranti; palzadaquwanishbaevna@gmail.com)

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARINING IJTIMOIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Maqolada jadidchilik harakatining etakchi rahnamolaridan Behbudiy va Abdurauf Fitrat faoliyati va unga bog‘liq dunyoqarashlari, kelajak poydevori bo‘lgan yoshlarni nafaqat huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, balki ma’naviy-madaniy, ijtimoiy va axloqiy yetuk, mustaqil fikrlovchi barkamol avlodni voyaga yetkazish bo‘yicha olg‘a surgan g‘oyalari, I.Gasprinskiyning taraqqiyotga eltadigan birdan-bir ishga yaroqli tarbiya usuli sifatidagi “usuli jadid” targ‘iboti, jadidlarning tuzgan siyosiy partiyalari va ularning qatag‘onga uchrashlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *jadidlar harakati, usuli jaded, oila, milliy mafkura, jadid maktablari, bosmachilik urushi, Qo‘qon Muxtoriyati, Oktabr jvoqealari.*

Косназарова Палзада Куанышбаевна (докторант Нукусского государственного педагогического института; palzadaquwanishbaevna@gmail.com)

СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНЫЕ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМ

Аннотация. *В статье раскрываются взгляды Бехбудий и Абдурауфа Фитрата, одних из ведущих лидеров джадидского движения, идеи, выдвинутые И.Гаспринским как единственный работоспособный метод образования, ведущий к развитию, являются идеями молодых людей, которые считаются фундаментом будущего. пропаганда, политические партии, созданные джадидами, и их встречи с изгнанниками.*

Ключевые слова: *Джадидское движение, метод джадидов, семья, национальная идеология, джадидские школы, печатная война, Кокандская автономия, октябрьские события.*

Kosnazarova Palzada Kuanyshbaevna (Doctoral student of Nukus State Pedagogical Institute palzadaquwanishbaevna@gmail.com)

SOCIAL, SPIRITUAL AND EDUCATIONAL VIEWS OF THE REPRESENTATIVES OF THE JADIDISM MOVEMENT

Annotation*. In the article, Behbudiy and Abdurauf Fitrat, one of the leading leaders of the Jadid movement, and their worldviews related to it, the ideas put forward by I. Gasprinsky as the only workable education method that leads to development, the ideas of I. Gasprinsky, as the only workable method of*

education that leads to development, are the ideas of young people who are the foundation of the future. propaganda, the political parties formed by the Jadids and their encounters with the exile.

***Key words**: Jadid movement, jaded method, family, national ideology, jadid schools, printing war, Kokan Autonomy, October events.*

Kirish. O‘tgan asrning boshlarida yashab ijod etgan jadidchilik namoyandalari jamiyatni ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, xalqni, ayniqsa, yoshlarni ilm-ma’rifatga etaklashni o‘zlarining yuksak maqsadi qilib belgilashgan. Ular yoshlar tarbiyasida diniy va dunyoviy bilimlarni bir-biridan ajratmasdan, milliy o‘zlikni saqlagan holda zamonaviylikka erishishga harakat qilishgan. Aynan shu jihatdan qaralganda Mahmudho‘ja Behbudiy xalqni ilm-ma’rifatli bo‘lishga chorlab, jamiyatni dunyoga ochiq ko‘z bilan qarashni, zamonaviy xo‘jalik yuritishda bilim, fan bilan qurollanib faollik ko‘rsatishni talab qilib, “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur” [1;200-b.], degan haqqoniy fikrlari bilan xalqni uyg‘otishga harakat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo‘yicha M.Behbudiy, A.Fitrat, I.Gaspirinskiy kabi jadidlarning asarlari tahlil qilindi. Ilm-ma’rifat, milliy tarbiya, oila, ma’naviyat masalalari bo‘yicha ularning ilgari surgan g‘oyalari, ayniqsa, “Oila”, “Padarkush”, “Munosib farzand” kabi asarlar asosida izchil ilmiy yondashuv ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-komparativ tahlil, kontent-analiz va konseptual yondashuv usullaridan foydalanildi. Jadidlar asarlari tematik jihatdan guruhlab o‘rganildi. Shuningdek, ijtimoiy-ma’naviy g‘oyalar zamonaviy qadriyatlar bilan qiyoslab baholandi. Nazariy manbalar bilan bir qatorda amaliy fikrlar ham tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Jadidchilik harakatining etakchi rahnamolaridan biri Behbudiy o‘z davrining buyuk donishmandidir. Behbudiyning maorif masalasidan tortib mustaqillik mavzusigacha bo‘lgan barcha asarlari – Turkistonning taqdirini belgilaydigan muhim muammolarga bag‘ishlangan. Uning barcha fikrlarini jamiyat va mamlakat rivojlantirishning izchil nazariy konsepsiyasi sifatida ko‘rish mumkin.

Mahmudho‘ja Behbudiy faoliyati va unga bog‘liq dunyoqarashida quyidagi uch qoidani olg‘a surdi:

1) zamon talablaridan kelib chiqib ish ko‘rish;

2) millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish;

3) milliy biqiqliqdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlar va muloqotlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish. Asrimiz boshlarida ilgari surilgan bu qarashlar hozirgi davrga hamohangdir va bu narsa ulug‘ siymo naqadar uzoqni ko‘ra bilganidan dalolat beradi [2;48-b.].

Taraqqiyotga eltadigan birdan-bir ishga yaroqli tarbiya usuli sifatida I.Gasprinskiyning “usuli jadid” ini tinmay targ‘ib qiladi. Hayotning turli sohalariga taalluqli zamon ruhidagi bilimlarni yuksak tarbiyaviy talabchanlik bilan boshqalarga qaraganda qiziqarliroq, oddiyroq tarzda, xalq tilida yoyishga harakat qiladi.

Jadidchilik harakati namoyandalarining qarashlarida sog‘lom millatning vujudga kelishida oila, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo‘yishgan, ayniqsa, insonning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o‘rni, ota -ona va yaqin kishilarning yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e’tibor berishgan. Ajdodlarimiz faqat oiladagina shakllanishi mumkin bo‘lgan sifatlar–halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, rostgo‘ylik kabi bir qator insoniy fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo‘yishlari bilan birgalikda, insoniy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan yuksak sifatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o‘tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko‘rsatmalarni o‘z falsafiy-axloqiy, badiiy-ilmiy, she’riy va nasriy qarashlarida ifodalab berganlar.

O‘zining salmoqli ijodi bilan jadidchilik g‘oyalarini mazmunan boyitgan Abdurauf Fitrat “Oila” asarida oilaning millat va jamiyat asosini tashkil etishini ta’kidlab, uning davlat, huquq, ma’rifat, tibbiyot bilan bog‘liq tomonlarini muhokamaga qo‘yadi. Oiladagi muhit, farzand tarbiyasi kabi masalalarni butun bir millatning taqdiri bilan bog‘lab ko‘rsatadi. U “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kushli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”, deb yozadi [3;13-b.].

Turkiston xalqlari tarixida katta o‘rin tutgan jadidchilik harakati murakkab va tarixiy jihatdan serqirra yo‘lni bosib o‘tdi. Jadidlar turli mamlakatlar tajribasiga tayanib, islohatlarni milliy asosda qayta ishlashga intilishdi, Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi anashu yo‘nalishda shakllanib yetildi. Jadidlarning millatimiz oldidagi xizmatlaridan biri shuki, ular Turkiston xalqlari va millatlarning qonun oldida tengligi g‘oyasini ilgari surilishidir. Ularning fikriga ko‘ra, Turkiston fuqarolari jamiyat hayotining barcha iqtisodiy-siyosiy, huquqiy va madaniy jabhalarida teng huquqqa ega bo‘lishlari lozimdir.

Jadidlar Ta'sis Majlisidan o'rin olish uchun juda ko'p urindilar, bu jarayonda taraqqiyparvarlar tomonidan tuzilgan "Sho'roi Islomiya" va jadidlarning konservativ qismidan tashkil topgan "Ulamo" jamiyati kabi tashkilotlarga bo'linish yuz berganligiga qaramasdan, birlashish yo'lidan bordilar. Natijada bu Turkiston federalistlari "Turk Adami markaziyati" partiyasining vujudga kelishiga olib keldi.

Biroq Turkistondagi 1917-yil Oktabr voqealari, bolsheviklarning hokimiyatga kelishi jadidlarga o'z maqsad-niyatlarining amalga oshishiga imkon bermadi. Shunga qaramay, 1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV Favqulodda qurultoyini chaqirdilar va Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida avtonomiya huquqiga asoslangan Turkiston Muxtoriyatini e'lon qildilar. Uch oygina yashagan Avtonom Respublika tarixi qonli sahifalardan iborat bo'lib, jadidlar taqib ostiga olindilar va 1937-yilga kelib, g'oyaviy qarashlari mavjud tuzum mafkurasiga to'g'ri kelmaganligi uchun ko'pchiligi qatag'onga uchradilar. Jadidlar birinchi bo'lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldi, ozodlik, erk, milliy g'urur va sha'n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, umuman mustamlaka istibdodi davrida unutilayozgan qadriyatlar to'g'risida jar soldi, ovoza qildi [4;87-b.].

Jadidlar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishning evolutsion islohot yo'li deb bildilar, ijtimoiy-davriy tuzumni o'zgartirishining eng maksimal effektiv yo'lini taklif qildilar. Bu ilg'or qarashli kishilar Forobiy falsafasini davom ettirib, inson aqli bilan borliqning dialektik birligini ochib beradi, deb bilishgan. Aql va borliqning birligi ilohiy aqlda, degan g'oya ularning falsafasiga singib ketgan [5;74-b.].

Demak, ular ilmiy tushunchalarni diniy e'tiqod bilan muvofiqlashtirishga intiladilar. Jadidlar o'z falsafiy xulosalari va Qur'oni karim o'rtasida hech qanday ziddiyat bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Jadidchilik harakati ma'rifatchilikning tor doirasidan faoliyat boshlab, siyosiy harakatga aylanib, o'z oldiga jamiyat va uni boshqarishni qayta qurishdek ulkan vazifalarni qo'ygan. Ular o'zlarining g'oyaviy qarashlarini, harakat dasturlarini shakllantirib, siyosiy partiyalarini tuzgan. Jadidlar harakat dasturining kuchayib borishining va siyosiy tus olganligining bir qator sabablari bor. Shulardan biri jadidchilik harakatiga xorijda o'qib, chet eldagi milliy taraqqiyparvar harakatlar tajribasini o'rganib qaytgan yoshlar kelib qo'shildi.

Ular xalqni madaniylashtirish doirasida cheklanib qolmay, aniq siyosiy vazifalar qo'yishni talab qildilar. Soliqlarni kamaytirish, ayrim amaldorlar zulmini cheklash, dehqonlar hayotini yaxshilash – shu talablar jumlasidan edi. Jadidlar Turkiston yoshlari zamondan xabardor bo'lish, fan-texnika yutuqlarini o'rganishi uchun til bilishi, yomon illatlardan qutulishi, buning uchun islom dinining mohiyatini to'g'ri anglay bilishlari kerakligiga katta e'tibor qaratdilar. Yoshlarni millat taraqqiyoti uchun kurashishga chaqiradi.

Turkistonning taraqqiyoti va ravnaqi zamonaviy ta'lim-tarbiya beradigan maktab va oliy dargohlarda tahsil olish, islohotlarni amalga oshirish g'ayratli yoshlarning harakati, ma'rifatparvarligi, shijoati orqali vujudga keladi deb qaraydi. Bu esa hayotdagi mushkul ishlarda yolg'iz yoshlarning ilmiy salohiyatidan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Yoshlar tahsilni jadid maktabidan keyin maxsus o'rta va oliy o'quv yurtlarida, zanjirsimon davom ettirishlari zarur.

Bu harakatining yana bir muhim jihati, ular o'z ona tillarining maqomini ko'tarish va davlat tili sifatida munosabatda bo'lish kerakligi masalasini ko'tarib chiqqan edilar. Bu, ayniqsa, 1918-yilning aprel oyida Turkistonda o'tkazilgan V qurultoyda o'lkaga avtonomiya maqomi berilishi bilan birga mahalliy xalq tilini rus tili bilan bir qatorda davlat tili sifatida e'tirof etish masalasi qayd etildi. Dinning ijtimoiy mohiyati va vazifalari katta ekanligini ta'kidlagan jadidlar nafaqat islom dini, balki butun dinlarning buyukligini chuqur anglaganlar. "Dinsiz dunyoda yashamoq, deb yozadi Behbudiy, insoniyat va madaniyatdan emas. Dinsiz mutamaddun bo'lmoq muholdur" [6].

Behbudiy nazarida, din inson ruhiyati bilan bog'liq bo'lib uning e'tiqodidir. Jadidlar diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish bilan birga unga amal qilgan. Bir millatning ikkinchi bir millat tomonidan kamsitilishini va millatlararo nikohga qarshilarga targ'ibot ishlarini olib borgan va "har bir musulmon kitobiy xalqlar bilan turmush qurishga muxtordir", deb ta'kidlagan [7].

Jadidlarning ijtimoiy qarashlarida oila munosabatlari masalalari keng o'rin tutadi. Ularning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq.

Bu g'oyalar Fitratning asarida shunday ifodalanadi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi" [4].

Jadid ma'rifatparvarlarining XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining mustaqillik uchun kurash tashkil etganlari, kelajakda barpo etilajak huquqiy-demokratik davlat tizimini ishlab chiqqanlari, hatto 20-yil-

larda milliy istiqlol bayrog‘ini ta’sis etib, butun Turkiston xalqlarini shu bayroq ostida birlashtira boshlaganlari ularning tarixiy xizmatlarini belgilovchi asosiy omillardir.

Turkiston Muxtoriyati va uning mazmun-mohiyati uzoq yillar soxtalashtirildi. Uning mohiyatini toraytirib ko‘rsatish maqsadida unga “Qo‘qon Muxtoriyati” degan nom berilib, uning tashkilotchilari “panislomchi”, “panturkchi”, “burjua millatchilari”, “aksil inqilobchilar”, deb atalib keldi. Shuning uchun ham jadidlarning rahbarlarini “milliy burjuaziya” mafkurachisi va sho‘ro hukumatining dushmani sifatida qo‘yilgan ayblar bilan qamoqqa olganlar. Aslida, asr boshida kommunistik bosqin va mustamlakaga qarshi xalqimiz olib borgan milliy ozodlik va mustaqillik kurashi tepasida jadidlar turgan.

Mustabid tuzum o‘zining mustahkamlanishi bilan jadidlarni ichdan bo‘lib yuborishga harakat qildi. Natijada jadidlar uchga bo‘linib ketdilar. Ularning birinchi qismi “bosmachilik urushi”ga qo‘shilib, Vatan ozodligi uchun kurashda shahid bo‘ldilar. Ikkinchi qismi esa kommunistlarning ta’qib va qatag‘onidan qochib, xorijga chiqib ketishga majbur bo‘ldilar. Uchinchi qismi esa kommunistik partiya safiga va sho‘ro hukumati tarkibiga kirib, millat va Vatan manfaatini himoya qilishga bel bog‘laydi. Istiqlol uchun rasman oshkora va mahfiy tashkilot hamda firqalarga uyushib, ikki tomonlama faoliyat yuritadi.

Umuman, jadid ziyolilari quyidagi ezgu ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lishdi:

–barcha muammolarni qamrab olgan jamiyatni o‘zgartirish konsepsiyasini yaratish;

–millat ongida o‘ziga xos o‘zgarishlar yasash;

–ta’limning xorijiy tajribalarga asoslangan yangi milliy shakl va usullarini yaratish.

Maktablar ochish va ularni darslik hamda qo‘llanmalar bilan ta’minlash. Oilada farzandning oladigan tarbiyasi va intellektual darajasi, ko‘p jihatdan ayollar saviyasiga bog‘liq ekani uchun ayollar ta’limi masalasining oila ta’limi, alohida maktablar tashkil qilish kabi muqobil variantlarini tanlash.

O‘z g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi minbarlar:

–yangi avangard jadid matbuoti, publitsistikasi, adabiyoti va zamonaviy dramaturgiyasiga asos solish;

–Turkistonda ilk “ibratxona” teatrni ishga tushirish;

–madaniy merosni to‘plash, nashr qilish va o‘rganishni yo‘lga qo‘yish;

–davlatchilik va milliy mustaqillik, yangi madaniyat yaratish uchun jasorat bilan kurashish va shu yo‘lda mardona qurbon bo‘lish va boshqalar.

Jadidlar quyidagi ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lishmadi va ayrim xatoliklarga yo‘l qo‘yishdi: Turkiston muxtoriyati amalga oshsa-da, muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Albatta, bunda chor Rossiyasining Muxtoriyat berishni istamasligi muhim rol o‘ynagan. Ammo, bizningcha, Respublika, ya’ni, davlat qurayotgan kishilar orasida davlat boshqaruvida muhim o‘rin tutuvchi sohalar: zamonaviy iqtisodiyot, jahon yurisprudensiyasi bo‘yicha Rossiya va Yevropada tahsil olgan malakali mutaxassislar nisbatan kamligi ham e’tiborga olinishi lozim. Jadidlarning eng katta xatosi Buxoro va Xivada bolsheviklarga ishonganini, ularni do‘st deb bilib, yordam kutgani, davlat to‘ntarishidan so‘ng muxtoriyatni o‘zimiz boshqaramiz, deb o‘ylagani bo‘lgan.

Xalq ma’naviyatini boyitish yo‘lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik ko‘rsatgan, alaloqibat qatag‘onga uchraganlar.

Xulosa. Jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma’naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas’uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mahmudho‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2006.

(2). Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. Sharq nashriyot matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2009.

(3). Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, «Ma’naviyat», 2000.

(4). Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Toshkent, 2016.

(5). Turdiyev Sh. Jadidizm masalasiga bag‘ishlangan munozara. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1998, 2-son.

(6). Avvalgi musulmonlardagi madaniyat. “Oyna” jurnali. A.Obloqulov tabdili, Samarqand viloyat “Zarafshon” gazetasi, 1997, 15-iyul.

(7). O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob, Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, Toshkent, 2000.